O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI
YANGIQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING

QARORI

Yangiqo’rg’on shaharchasi Mustaqillik ko’chasi, 1 uy. 161200 Tel: (69)63-21-051

2022 - yil 26 - sentabr 531-6-90-Q/22 Yangiqo‘rg‘on tuman hokimligi

Yangiqo‘rg‘on tumani hududidagi umumta’lim maktablari atrofida transport vositalarini cheklangan tezligini oshirmasligi uchun 30 tezlikdagi yo‘l belgisi o‘rnatish to‘g‘risida.

“Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi Qonunning 7-va 20-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risidagi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 348-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 26 dekabrdagi 342-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llari mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish qoidalari”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 172-son Qarori talablari ijrosi yuzasidan piyodalar xavfsizligini ta’minlash, transportlar tirbandligini oldini olish, maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5-, 6- va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Yangiqo‘rg‘on tumani hududidagi umumta’lim maktablari atrofida transport vositalarini cheklangan tezligini oshirmasligi uchun 30 tezlikdagi yo‘l belgisi o‘rnatilsin.

2. Tuman ichki ishlar bo‘limi (R.Yakubbaev) va tuman IIB YHXB boshlig‘i (F.Xonazarov)ga tuman hududidagi umumta’lim maktablari atrofida transport vositalarini cheklangan tezligini oshirmasligi uchun 30 tezlikdagi yo‘l belgisi o‘rnatilishi bilan avtomobil yo‘li bo‘ylab avtomobillar harakatining o‘zgarishi munosabati bilan piyodalar va avtomobillar harakatini tartibga solish va nazoratga olish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati ushbu qarorni “Yangiqo‘rg‘on hayoti” gazetasida nashr etilishi va hokimlik rasmiy veb saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari

M.Sotiboldiev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Najmiddinov**